

SILK AVIA PARVOZLARI JADVALIDAGI VAQTINCHALIK O'ZGARISHLAR HAQIDA

2025 26 Avgust

Silk Avia aviakompaniyasi ATR-72 havo kemalarida 2025-yil 1-sentyabrdan 24-oktyabrgacha rejali reglament ishlari olib borilishi munosabati bilan bir qator aviaqatnovlar jadvaliga quyidagi o'zgartirishlar kiritilishini ma'lum qiladi:

1. Toshkent - Termiz - Toshkent

Haftalik 21 ta aviaqatnovdan 3 tasi bekor qilinmoqda:

- Dushanba - **US753/754**
- Chorshanba - **US757/758**
- Juma kuni - **US753/754**

Qolgan 18 ta aviaqatnov jadval bo'yicha amalga oshirilmoqda.

QO'SHIMCHA ravishda mavjud talabni hisobga olgan holda:

1-sentyabrdan 29-sentyabrgacha dushanba, chorshanba va juma kunlari "Uzbekistan Airways" Aj yo'lovchi sig'imi oshirilgan A320 havo kemalarida qo'shimcha qatnovlarni amalga oshiradi:

Dushanba, juma

Toshkent - Termiz: 18:40 - 20:00

Termiz - Toshkent: 20:50 - 22:00

Chorshanba

Toshkent - Termiz: 12:40 - 14:00

Termiz - Toshkent: 14:50 - 16:00

2. Toshkent - Buxoro - Toshkent

Haftalik 20 ta aviaqatnocdan 2 tasi bekor qilinadi:

Seshanba - **US801/802**

Juma kuni - **US801/802**

Qolgan 18 ta aviaqatnov jadval bo'yicha amalga oshirilmoqda.

QO'SHIMCHA ravishda mavjud talabni hisobga olgan holda:

9-sentyabrdan 30-sentyabrgacha seshanba va juma kunlari "Uzbekistan Airways" Aj yo'lovchi sig'imi oshirilgan A320 havo kemalarida qo'shimcha qatnovlarni amalga oshiradi:

Seshanba (9-sentyabrdan):

Toshkent - Buxoro: 07:00 - 08:10

Buxoro - Toshkent: 09:00 - 10:00

Juma (12-sentyabr):

Toshkent - Buxoro: 10:00 - 11:10

Buxoro - Toshkent: 12:00 - 13:00

Juma (19 va 26-sentyabr):

Toshkent - Buxoro: 12:35 - 13:45

Buxoro - Toshkent: 14:35 - 15:35

3. Toshkent - Farg'ona - Toshkent

Haftalik 7 ta aviaqatnovdan 3 tasi bekor qilinmoqda:

Seshanba - **US401/402**

Payshanba - **US401/402**

Shanba - **US401/402**

Qolgan 4 ta aviaqatnov jadval bo'yicha amalga oshirilmoqda.

QO'SHIMCHA ravishda mavjud talabni hisobga olgan holda:

6-sentyabrdan 27-sentyabrgacha "Uzbekistan Airways" Aj yo'lovchilar sig'imi oshirilgan A320 samolyotlarida qo'shimcha qatnovlarni (shanba kunlari) amalga oshiradi:

Toshkent - Farg'ona: 14:30 - 15:20

Farg'ona - Toshkent: 16:10 - 17:10

4. Toshkent - Navoiy - Toshkent

Haftalik 4 ta parvozdan 1 tasi bekor qilinadi:

Chorshanba - **US851/852**

Qolgan 3 ta aviaqatnov jadval asosida amalga oshirilmoqda.

QO'SHIMCHA ravishda mavjud talabni hisobga olgan holda:

10, 17 va 24-sentyabr kunlari "Uzbekistan Airways" Aj yo'lovchi sig'imi oshirilgan A320 samolyotlarida qo'shimcha aviaqatnovlarni (chorshanba kunlari) amalga oshiradi:

Toshkent - Navoiy: 15:00 - 16:00

Navoiy - Toshkent: 16:50 - 17:50

5. Toshkent - Namangan - Toshkent

Silk Avia aviaqatnovlari vaqtincha to'xtatildi.

QO'SHIMCHA ravishda mavjud talabni hisobga olgan holda:

2-sentyabrdan 30-sentyabrgacha seshanba va payshanba kunlari "Uzbekistan Airways" AJ yo'lovchi sig'imi oshirilgan A320 samolyotlarida qo'shimcha qatnovlarni amalga oshiradi:

Seshanba

Toshkent - Namangan: 17:30 - 18:40

Namangan - Toshkent: 19:30 - 20:30

Payshanba

Toshkent - Namangan: 18:30 - 19:40

Namangan - Toshkent: 20:30 - 21:30

Bekor qilingan Silk Avia aviaqatnovlar yo'lovchilariga chiptalar narxi to'liq qaytariladi yoki yo'lovchilarning xohishiga ko'ra Silk Avia yoki "Uzbekistan Airways" AJning tegishli yo'nalishlar bo'yicha boshqa aviaqatnovlariga bepul qayta bronlash amalga oshiriladi.

Silk Avia aviakompaniyasi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noqulayliklar uchun uzr so'raydi va parvozlar xavfsizligi birinchi o'rinda turishini ta'kidlaydi.

Chiptalarni silk-avia.com saytida, ilovada va aviakassalarda bron qiling. Uzbekistan Airways aviachiptalarini booking.uzairways.com saytida, ilovada, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki agentlardan xarid qilish mumkin.